

**NAZAR ESHONQUL “SAN'AT -1” HIKOYASI VA ASARLARIDAGI CHOL
OBRAZI TAHLILI.****Ergasheva Pokiza Akmal qizi***Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi***Ilmiy rahbar: Sharipova Sunbula Ahad qizi***Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek nasriga XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbda yangi adabiy oqim postmodernizm paydo bo'ldi. Shu o'rinda yozuvchi Nazar Eshonqul o'zbek nasriga, ayniqsa, hikoyachiligiga o'zgacha ovoz va ruh olib kirdi. U Postmodernizm janrini Sharq va G'arb adabiyoti an'analari bilan uyg'unlashtira olgan adibga aylandi. Mazkur maqolada Nazar Eshonqul qalamiga tegishli "San'at-1" hikoyasi tahlil qilinadi. Nazar Eshonqul asarlarida chol obrazining timsoliy xususiyatlari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Nazar Eshonqul, obraz, nasr, chol, rassom, podshoh, xalq, postmodernizm, Vissarion Belinskiy, Jacques Derrida.*

Kirish. Keyingi yillar adabiyoti odatiy qoliplarni inkor etib o'z janrlarini yaratdi. Modern, modernchilar va postmodern yuzaga keldi. O'zigacha bo'lgan barcha adabiy yo'nalishlardan farqli ravishda aynan modernizm o'z e'tiborini oddiy odamning ichki olamini tasvirlashga qaratdi. Modernchi yozuvchilar badiiy tasvirlarga yangicha ko'rinish, badiiy obrazlarga o'ziga xoslik berishga urinishdi. O'zigacha bo'lgan barcha adabiy yo'nalishlardan farqli ravishda aynan modernizm o'z e'tiborini oddiy odamning ichki olamini tasvirlashga qaratdi. Modernchi yozuvchilar azaliy qadriyatlardan vos kechib, kitobxonlarni ham fikrlashga, bosh qotirishga, o'zlariga sherik qilib yangi shakllarni yaratishga urinishdi. Modernchi adiblar asar tuzilishini ham buzib yuborishdi. Asarlar tartib bilan emas, chalkash o'ylar bilan yurgan qahramonlar hissiyotlariga quriladi. Modernizm undan o'sib chiqqan postmodernida ijod qilayotgan Nazar Eshonqul o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega yozuvchi. U obrazlarni xalq mifologiyasidan oziqlanib yaratadi va boyitadi. Uning asarlarida modernizm, postmodern ufurib turadi.

ASOSIY QISM. Badiiylik - san'atning ham joni, ham ruhi ekan, uni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri - badiiy obrazdir va u adabiyotshunoslik fanining markaziy muammosi sanaladi. "Obraz" atamasi "raz" - "chiziq" so'zidan olingan bo'lib "raz" so'zidan "razit" chizmoq, yo'nmoq, o'ymoq va undan "obrazit" chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq so'zi yasalgan. "Obrazit"dan "obraz" umuman olingan tasvir vujudga kelgan. Belinskiy obrazga shunday ta'rif beradi; "Voqelikdagi ma'lum hodisalarning mag'zini chaqib beradigan,

umumlashtiruvchi...har qanday voqeiy hodisadan yuksak ...har qanday tarixdan ishonchliroqdir". Obraz "badiiy to'qima yordamida yaratilgan ,estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni chog'da, aniq manzarasidir". Odatiy obazlardan xususiyatlari bilan farq qiladigan yangi bir oqim badiiy adabiyotga kirib keldi.

Postmodern nasrning asosiy prinsiplari italyan Umberto Eko,I talo Kalvino, amerikalik Jon Bart, olmon Patrik Zyushind, chex Milano Kundra va serb Milorad Pavich asarlarida ko'rinadi. Postmodernizm modernizmdan keyin kelgan bo'lib "post"-keyin, o'ta murakkab va serqirra adabiy oqimdir. Jamiyat va inson hayotiga bo'lgan e'tibor, badiiylikdan ko'ra g'oyaviylikka, urg'u berish qahramon psixologiyasiga kirishdir. Postmodern adabiyot o'z mazmun kayfiyatiga ko'ra ko'pincha qismlardan iborat bo'ladi.Shuning uchun ham uni o'qigan kishi ma'nolarning tariqdek sochib yuborilganini ko'radi.Yaxlitlik,butunlik topmaydi.Nazar Eshonqul asarlari o'qiganda ham,odatiy asarlardan farq qilishini va ma'nolar sochilganini ko'rish mumkin.Fransuz faylasufi Jak Derrida postmodernizm davrini "Oxirzamon kelmasdan burungi dunyoning mutlaq ostin-ustin bo'lishi",-deb ataydi. Nazar Eshonqul ijodidagi postmodern xususiyatlariga ega "San'at-1" hikoyasidagi obrazlarga to'xtalib o'tsak. Rassom obrazi - sotilgan san'atning umumiy ifodasidir.U insonlar istaklariga, nafsiga xizmat qildi. Asarda quyidagicha keltiriladi: "U uzoq yillar qirollarga va vazirlarga goh sirli qurolning, goh kishanning, goh xiyonatning, goh urushning suratini chizib berib yurdi. U uzoq umr ko'rди,biroq undan biron marta ham baxtning suratini chizib berishni so'rashmadi". Rassom umrini bir-biriga xiyonat qiladigan, o'ldiradigan odamlar uchun surat chizib o'tkazdi, lekin baxtning suratini chizib ko'rishga urinmadi, baxt aslida nimaligini bilmay yashadi. Rassom baxtni,halovatni pulda deb o'ylagan, kasbini maqsadsiz bajarayotgan loqayd insonlarning umumiy obrazi. U buyurtmaga yaratilgan ijodning ham ramzi. Geigel o'zining estetik qarashlarida san'at haqida to'xtalganda "San'at-obrazlar orqali fikrlash" demakdir deb ta'kidlagan. Hikoyadagi rassom obrazi o'z suratlariga asar sifatida emas, pul topish manbai sifatida qaragan. U haqiqatni emas, hokimiyat xohlagan narsani chizadi bu hozirgi kundagi tizimga moslashgan ziyolilar, haqiqatni ayto olmaydigan odamlar timsoli. Rassom o'zi fikrlab insonlar uchun yaxshilik olib keladigan surat chiza olmadi. Bu hozirgi kundagi qaror qabul qila olmaydigan,ular uchun boshqalar o'ylaydigan insonlar.

Podshoh hokimiyatning, insonlar yashayotgan davrning, uning aldovlarining timsoli. Xalqning g'azabidan qo'rqqani uchun yo'g'onlar bilan ko'zlarini bog'lashni, biz baxtiyormiz degan tushuncha bilan yashashini xohlardi.U osoyishtalikni chizdirdi. "Odamlar hech qachon g'avg'o qilmasinlar, g'alayon ham bo'lmasin, mening chizgan chizig'imdan chiqishmasin. Mamlakatdagi masalalarni hal etishda faqat mening haqim bo'lsin". Unga e'tiroz bildirmaydigan, sodiq qullar kerak edi. Podshoh faqat xalqni boshqarishni xohladi.Uni tushunishga, muammolarni hal qilishga, birlashtirishga harakat qilmadi. Podshoh obrazi

bugungi kundagi o'z manfaatini ustin qo'yuvchi, xalqni emas, o'z o'rnini o'ylovchi, odamlarni har doim nazorat qilishni va boshqarishni xohlovchi rahbarlar, insonlarning umumiy shakli.

Xalq ongli emas u podaga aylangan edi. "Xalq sehrlab qo'yilganga o'xshardi" chetdan qaraganda madaniyatli, baxtli ko'rinardi. Ular fikrlashdan, kurashishdan to'xtagan edi. Muallif: "Fikr taraqqiyot me'zoni ham ekan.U to'xtagan va hamma bir xil fikrlab qolgan joyda taraqqiyot ham to'xtaydi,faqat taraqqiy etayapmiz degan aldamchi tasavvur bo'ladi". Xalq obraziga shu mazmun singdirilgan. Ular "madaniyatli aqlsiz qullar" edi.

Nazar Eshonqul o'zining qator asarlarida "chol "obrazidan keng foydalanadi. "Maymun yetaklagan odam"da, "Qora kitob"da va "San'at-1" hikoyasida ham podshoh keksa, chol bo'ladi. Bu asarlardagi "chol" odatiy obrazdan farq qiladi. "Maymun yetaklagan odam" hikoyasidagi chol yoshlik chog'larida maymunni ya'ni nafsini ishonch bilan yetaklab yurdi, lekin hayotining keyingi yillarida asta tizginni bo'shatib maymun uni yetaklay boshladi. Endi u odam emas, balki maymun qo'lidagi o'yinchoqqa aylanib unga ergashdi.Bu obraz hayotning o'tkinchi ekanligini,umr bo'yi kurashib, ishonib kelayotgan narsalarning bir ro'yo bo'lib chiqishini ko'rsatadi. "San'at -1" hikoyasidagi podshoh ham chol edi. Undagi chol obrazi o'z manfaatini ko'zlaydigan,xudbin nafsining aytganini qiladigan qahramon. Podshoh o'zi keksayib qolgan bo'lsada dunyoni yaxshi ko'radi, hukmron bo'lishni xohlaydi. Bu obrazlar o'zlarida ulkan ma'nolarni va hayotiy haqiqatlarni jamlagan. "Qora kitob" asaridagi chol obrazi odamlarni emas, balki shaytonni,insonning shaxvoniy nafsining ifodasi.Bu chol cho'qqi soqol edi. Adabiyotda cho'qqi soqol obrazi kam uchraydi, asosan soqollari uzun, ko'ksiga tushadigan deb ta'riflanadi.Bu ijobiy taassurot uyg'otadi. Cho'qqi soqol ayyorlik, yolg'onchilik, yovuzlik ma'nosini ifodalashga ham yordam bergan.Asarda keltirilgan parchada: "Bu odam o'zining maymoqligi, haddan tashqari qiltiriqligi bilan emas, ko'zlarida dunib qolgan qahr va ming bilan meni lol qoldirdi. U yolg'iz va mag'rur edi, yolg'izlik unga ko'rk berib turardi",-deb ifodalanadi. Bola cho'qqi soqolni ko'rganda shunday o'ylaydi. Bu tasvir odam tasviri emas shaytonning tasviri edi. U yosh bolaning qalbini,ongini asta-sekin o'ziniki qilib oladi. Uni boshqaradi, bolaning farzandlari uni emas,shaytonning izdoshlariga aylanadi. Bu obraz har bir insonning ichida yashovchi shaytonning umumiy tasviri sifatida aks etgan. "Tobut" hikoyasidagi me'mor obrazi o'ylashga majbur qiladi.Me'morning bu so'zlari nimani anglatadi: "Hammalaring uning changalidasizlar, shahar ham uniki, - baqirardi u loqayd va parishon odamlarga. - U menga aytib turdi, men qurib berdim. "Unga kim aytib turgan? Hikoya oxirida shahar boshidan tobut shaklida qurilgani ma'lum bo'ladi,odamlar tobut ichida yashayotgan edi. Odamlarning sababsiz o'limiga ham shu sabab bo'lib chiqadi. Bu hikoyadagi me'mor ham xuddi "Qora kitob"dagi odamday shayton tomonidan boshqarilganmikan, dunyoda yo'q shahar qurishni maqsad qilib, lekin aslida tobut yasaganini kech anglab yetgan obraz desak bo'ladi. Odamlarning ham bu holatga tushishiga loqaydlik

sabab bo'lmayabdimi? Atrofiga nazar tashlamayotgani, o'limlarning sababiga qiziqmayotgani ularni, allaqachon, tirik murdalarga aylantirgandir. Shaharda o'rnashib qolgan yoqimsiz hid,sovuq va mahobatli binolar, yuzlarini tabassum tark etgan insonlar bularning bari qo'rquv,xavotir uyg'otadi. Chol telba bo'lib qolgandan keyin ham odamlarga tushuntirishga urinadi, lekin odamlar parvo qilmaydi. Chol o'limidan oldin yosh arxitektor tili bilan aytganda: "Javrashlari ham oldingiday g'azabnok emas, balki mungli va hasratli ohang kasb etganday edi: uning javrashlari menga tavba-tazarru qilayotgan gunohi azimkorning ming'irlashiday eshitilgandi. "Gunohini anglab yetgan, tovba qilayotgan va afsuslar ichida qolgan insonligini bildiradi. Asarda keltirilganidan: "Nima bo'lgan taqdirda ham telba vahm, qo'rquv, to'zon va o'lat hukmron shaharning uyqus iqroriga o'xshardi."Chol o'zi qurgan shaharning, tobutning me'mori va iqrori edi. U xato qilgan, boshqarilgan, kech anglab yetgan, lekin u qurgan tobutdagi odamlar ham, o'zi ham o'limga mahkum edi.

XULOSA. Nazar Eshonqul ijodidagi asarlar, hikoyalar mazmun-mohiyati bilan ajralib turadi. Bir qaraganda boshqacha tushunarsiz ko'ringan holatlar aslida hayot haqiqatlarini va ichki kechinmalarni aks ettirgan. "San'at-1" hikoyasidagi obrazlar atrofimizdagi odamlarning, jamiyatning ifodasidir. Xalq fikrlashdan to'xtagan, o'ylamaydigan hozirgi jamiyat bo'lsa, rassom qadr topmagan san'at, nima qilayotganini anglamaydigan, pulni maqsadga aylantirgan odamlar tasviridir. Chol obrazlarga to'xtalsak ular turlicha holatda, turlicha hayotda yashagan qahramonlar, ammo ularning bari yo'lini yo'qotgan, xato qilgan, ishonib kelgan haqiqatlari yolg'on bo'lib chiqqan obrazlar. Ular xulosa qilishga, o'ylab ko'rishga, ibrat olishga yordam beradi. Modernizm ham postmodernizm ham noodatij holatda ifolash orqali yetkazishga, o'ylashga undagi uchun yangi davrda o'z o'rniga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Hotam Umurov "Adabiyotshunoslik nazariyasi"Toshkent.A.Qodiriy nomida xalq merosi nashriyoti 2004.
- 2.Ulug'bek Hamdamov "Jahon adabiyoti Modernizm va Postmodernizm".
- 3."Maymun yetaklagan odam "ziyouz.com.
4. Назар Эшонкул Кора Китоб. 2008 201, 202
- 5.Nazar Eshonqul "San'at" hikoyasi ziyouz .com
- 6.M.Z.Djalaldinova. Ikkinchi Jahon urushidan keyin postmodernizmning paydo bo'lish xususiyatlari.
- 7.Muxlisa Sadullayeva Nazar Eshonqul hikoyalarida obraz masalasi talqini ("Qo'l" hikoyasi asosida) Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi.

8.Nazar Eshonqulning Modern asarlari tahlili. Nurafshon Oripova Olimon qizi.

9."Odam hali ham borliq oldida ojiz"-yozuvchi Nazar Eshonqul bilan suhbat.Oyina.uz.Ayimxon Eshniyazova .

10.Qozoqboy Yo'ldosh.Modernizm:ildiz,mohiyat va belgilar ziyo.uz

11.Nazar Eshonqul. Tobut(hikoya)ziyouz.com.